



## SPEECH CULTURE IN THE JUDICIARY

Atadjanova Sevara

UzSWLU 136 group master's degree

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5176220>

### ARTICLE INFO

Received: 01<sup>st</sup> August 2021

Accepted: 05<sup>th</sup> August 2021

Online: 10<sup>th</sup> August 2021

### KEY WORDS

Rhetoric, rhetoric,  
academic, social,  
judicial, military,  
political, domestic.

### ABSTRACT

*This article discusses the culture of speech and rhetoric in the judiciary.*

## SUD TIZIMIDA NUTQ MADANIYATI

Atadjanova Sevara

UzSWLU 136 guruh magistranti

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01-avgust 2021

Ma'qullandi: 05-avgust 2021

Chop etildi: 10-avgust 2021

### KALIT SO'ZLAR

Ritorika, notiqlik,  
akademik, ijtimoiy, sud,  
harbiy, siyosiy, maishiy

### ANNOTATSIYA

*Mazkur maqolada sud tizimida nutq madaniyati, ritorika haqida fikr mulohazalar bildirildi.*

Sud notiqligi ritorikaning qadimgi ko'rinishlaridan bo'lib, bahs va munozaralar asosiga qurilganligi bilan ajralib turadi. Garchi har ikkalalari ham sudda javobgarlikka tortilayotgan kishini yoki guruhni obyekt qilib olgan bo'lsalar-da, undagi prokuror va advokat nutqlari, jamoatchi-qoralovchi va jamoatchi-oqlovchi nutqlari mazmun-mohiyati va axloqiy-huquqiy yo'nalishi bilan bir-biridan farq qiladi va bu narsa bahs-munozaraga sabab bo'ladi. Bu bahs-munozaralar

haqiqatning ro'yobga chiqishiga, sud hay'atining adolatli hukm chiqarishiga ko'maklashadi. Boyatda xolisonalik, obyektivlik, ayblanuvchi yo'l qo'ygan har bir holatni mayda-chuydasigacha tahlil qilish va dalillash, asoslash va huquqiy baho berish bu nutqlarga muvaffaqiyat keltiruvchi jihatlardir. Sodir etilgan jinoyatga va uni sodir etgan ayblanuvchiga aniq va to'g'ri tavsif berish va bunda ruhiy holatlarni hisobga olish ana shu xolisonalikning garovi bo'lib xizmat qiladi.



Ko'rinadiki, sudlovning insonlar taqdiri bilan bog'liq g'oyatda murakkab jarayon ekanligi bu nutqlarni shakllantirishning notiqlik deb ataladigan o'ziga xos yo'lini belgilab beradi. Bu notiqlikning har biri o'z tili va uslubiga ega bo'lgan notiqlikning alohida ko'rinishlari bo'lib, yuqorida ta'kidlaganimizdek, sud notiqligi tushunchasi ularni umumiy nom ostida shunchaki birlashtiradi, xolos. Shuning uchun ham ularning har birini alohida-alohida o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Notiq etikasi uning axloqiy me'yorlari, xulqi, o'z vazifasiga va tinglovchilarning munosabatiga bog'liq bo'ladi va notiqning shaxsini va jamiyat, xalq, qonun va himoya qilayotgan kishisi oldidagi burchini belgilaydi. Shuning uchun ham etika nutqqa tayyorgarlikdan tortib, uni ijro etishdan oldiga qo'ygan maqsadiga erishgunga qadar bo'lgan faoliyatini qamrab oladi. Bu faoliyatda notiqning nazariy tayyorgarligi, ma'naviy dunyoqarashi, salohiyati, prinsipiialligi, axloqiy qiyofasi, Prezident va davlat olib borayotgan siyosatdan xabardorligi, hatto o'z fikrini bayon qilishdagi metodik ko'nikmasi namoyon bo'ladi. Ana shu fazilatlariga ega bo'lgan notiqqina kishilarda qonun ustuvorligiga, adolatga bo'lgan ishonchni mustahkamlay oladi va, aksincha, bulardan xabardor bo'lmagan notiqning o'z tinglovchisi aqli va yuragiga ta'sir etishi gumon.

Sud munozarasi jarayonida odoblilik va fikrni ifoda etishda, so'z va iboralarni tanlashda namoyon bo'ladigan xushmuomalalik asosiy o'ringa chiqadi. Bosiqlik, mulohazalarini hayajonlanmasdan, ehtirolarga berilmasdan bayon etish notiqqa muvaffaqiyat keltiradi. Gapirish yozilgan nutqni o'qib berishga qaraganda birmuncha

qiyin jarayon bo'lgani uchun og'zaki nutqqa hamisha ruhiy tayyor turish kerak bo'ladi. Chunki hamma vaqt ham yozilgan narsalarni o'qib berib, bahsga kirishib bo'lmaydi.

Nutqiy etiket – murojaat notiqning sud jarayonidagi faoliyatida muhim o'rin tutadi. Sud hay'atiga va, umuman, nutq qaratilgan shaxsga nisbatan muhtaram, hurmatli, e'tiboringiz uchun rahmat yoki tashakkur kabi so'z va iboralarni ishlatish munozara iqlimini mo'tadillashtiradi, jarayon ishtirokchilari ortiqcha asabiylashishdan saqlanadi. Bu jarayon faqat yuridik til va yurisprudensiyaga oid terminlar bilan so'zlashni taqozo qiladi. Unda prokurorni qoralovchi, advokatni oqlovchi, sudyani qozi, ozodlikdan mahrum etishni kesish, afv etishni oqlash, nomusga tegishni zo'rlash, suiqasd qilishni o'ldirish deb bo'lmaydi.

Hatto notiq bu sud jarayonida harakat akti bo'lgan jestga - tana, yuz va qo'l harakatiga ham befarq bo'lmasligi kerak. Chunki jest kommunikativ jarayonning tarkibiy qismi sanaladi va ular maqsadli nutq so'zlanayotganda, ta'sir o'tkazish asosiy muddao bo'lib turganda nutqni kuchaytiruvchi, ishontirish kuchini oshiruvchi vositaga aylanadi. Aslida milliy va individual xarakterga ega bo'lgan jest so'zga va fikr ifodasiga aniqlik kiritadi. Masalan, nutq jarayonida birgina sharqona harakat – notiqning qo'lini ko'ksiga qo'yishi vaziyatga qanchalik ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ko'z oldimizga keltiraylik. Ammo tinglovchilarda teskari reaksiya beradigan, notiq haqida noto'g'ri fikr uyg'otadigan harakatlardan qochish kerak. Odatda ba'zi notiqlar o'z harakatlarini nazorat qilishni unutishadi. Buyuk Siseron ta'kidlagan ediki, nutq ijrosi yuz ifodasi, tana va qo'l harakatlarini ham, tovush va ovoz ottenkalarini ham taqozo



qiladi. Demak, suddagi nutqning monologik va dialogik xarakteri ohang, ovozi, diksiya, tembr, tepm, mantiqiy urg'u, pauza, talaffuz, urg'u, kutilmaganlik (spontannost) hamda so'zlashuv uslubiga xos jihatlarni keltirib chiqaradiki, ularga e'tibor berish notiq uchun zaruratga aylanadi. Sanab o'tilganlarning barchasi sud jarayonidagi bahs va tortishuvlarda muhim omillardan hisoblanadi.

Jinoyatning sodir bo'lish jarayonida huquqiy organlar vakili bo'lgan tergovchi va prokuror ham, sudya va advokat ham ishtirok etmagan bo'ladi. Ular faqat voqeyaga aloqador bo'lgan dalillarni taqqoslash natijasida, agar guvohlar bo'lsa, ularning ko'rsatmalariga tayanib haqiqiy jarayonni baholaydilar va amaldagi qonunlar doirasida tegishli xulosaga keladilar.

Taniqli huquqshunoslari A.Saidov va G.Sarkisyanlar ham ta'kidlaydilar ki, har bir yurist, eng avvalo, o'z nutqida ko'rib chiqilayotgan muammolar, ishni mufassal bilishi (lozim bo'ladi), barcha aniq materiallar, barcha dalillarning chuqur tahlili, dalil-isbotlarga boyligi, xarakteristikalarining aniqligi, ijodiy fikrlarning to'liqligi, haqiqatning dalil izlash bilan farqlanishi, yana, albatta, talqin etilayotgan masala qanchalik murakkab, ko'rib chiqilayotgan ishning mag'zi qanchalik og'irroq bo'lsa, ular yuristdan shunchalik ko'p aqliy harakat qilishni talab etadi, nutq mazmuni ustida ham, uning shakllari ustida ham ko'proq berilib ishlashini, o'zining har bir fikri, har bir dalil-isbot, har bir tezisning aniq, tushunarli bo'lishi, og'zaki va yozma shaklini g'oyat darajada aniq g'aydalantirilgan holda puxta tanlash va qayta ishlashni talab etadi.

Bunday nutq tinglovchilar diqqatini o'ziga jalb qiladi, shuningdek, amaliy samaraga – muhokama etilayotgan masalaning, ko'rib chiqilayotgan ishning qonun normalari va ijtimoiy adolat prinsiplariga qat'iy rioya qilingan holda to'g'ri hal qilishga erishishga qodir bo'ladi.

Shuning uchun odil sudlov mutasaddilari va uning taqdirini hal qiluvchilarning o'zlari til jihatdan savodli bo'lishlari, tilga mas'uliyat bilan munosabat bildirishlari va zarur nutqiy madaniyatni egallagan bo'lishlari lozim. Filologiya fanlari doktori Z.Tarlanov internetga berilgan «Nutq madaniyati va odil sudlov» maqolasida M.V.Lomonosovning «yurisprudensiya grammatikasiz shubhalidir», degan fikrini keltirib, bu yerda nafaqat grammatikaning o'zini, balki nutqiy madaniyatni nazarda tutganligini eslatib o'tadi. Ushbu maqolada keltirilishicha, XIX-XX asrning taniqli rus advokati P.Sergeich (P.S.Poroxovnikov) shunday degan ekan: «Faqatgina tushunadigan qilib gapirmang, shunday gapiringki, sizni sudyaning tushunmasligi mumkin bo'lmasin. Bunday mukammallikka erishishning ikki tashqi: uslubning tozaligi va aniqligi hamda ikki ichki: predmet va tilni bilish sharti bor». Ko'rinayaptiki, ularning uchtasi tilni bilishga aloqador.

Notiqlik axloqi va madaniyati sud jarayonida alohida mazmun kasb etadi. Chunki bu jarayondagi munozara va tortishuvlar, rad etish va qo'llab quvvatlashlar, isbotlash va asoslashlar faqatgina til vositalari yordamida reallashadi. Uning ko'magi bilan tafakkur mantiqi shu darajada aniq bo'ladiki, sud xulosasida ikkidan biri tanlanadi, uchinchisiga hojat qolmaydi.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A p r y e s y a n G.Z. Oratorskoye iskusstvo. – M., 1978. – 280 s.
2. Oratorskoye iskusstvo. Sostavitel S.I.Berezin. – L.,1970.
3. Saidov A. Sarkisyans G. Yuridik til va huquqshunos nutqi.- Toshkent: Adolat, 1994.
4. Tarlanov Z. Nutq madaniyati va odil sudlov. Internetga berilgan maqola.